

MAKTABGACHA YOSH BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Kamilova Gulmira Alimovna

BuxDPI professori, p.f.n

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15106638>

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish, ta'lim jarayonlarini integratsiyalashgan yondoshuvlarni qo'llash, ekologik madaniyatni shakllantirishda MTT va oila hamkorligini tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: axloq, maktabgacha yosh, maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, tabiat, tarbiyachi, ota-ona.

Абстрактный. В статье представлены сведения о формировании основ экологической культуры у дошкольников, использовании комплексных подходов к образовательному процессу, организации МТТ и сотрудничества семьи в формировании экологической культуры.

Ключевые слова: нравственность, дошкольный возраст, дошкольное образование, экологическое воспитание, экологическая культура, природа, воспитатель, родители.

Abstract. The article provides information on the formation of the foundations of ecological culture in preschool children, the use of integrated approaches to educational processes, and the organization of MTT and family cooperation in the formation of ecological culture.

Key words: morality, preschool age, preschool education, ecological education, ecological culture, nature, educator, parents.

Turmush tarzida har bir xalqning uzoq asrlar davomida yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklari, atrof - muhit, tabiat va jamiyat, kelajak haqida tasavvurlari, milliy-etnik belgilari, mentaliteti, urf-odatlar, an'analari hamda yashash usuli aks etadi. O'zbeklar yashash tarzida azaldan sog'lomlashtirish, salomatlikni asrash tafakkuri mavjud bo'lgan hamda mazkur bilim va malakalar tizimi farzandlar tarbiyasida keng qo'llanilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim berish bu pedagogikada zamonaviy urf emas, balki bolalarda atrof olamni yaxshi ko'rish hissi va unga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirganda ularda estetik, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya olish imkoniyatlari ochiladi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish insonning ruhiy olamini o'zgartiradi, ijobiy axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani bola shaxsi

Mart, 2025-Yil

rivojlanayotgan ilk yoshda boshlash kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Tarbiyachining bolalar bilan ishlashda asosiy urg'u beradigan jihatlariga ta'lim berishda integratsiyalashgan yondoshuv kiradi, ta'lim berishning bu usuli nafaqat ekologik tarbiyani balki har tomonlama barkamol shaxs tarbiyalashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar, suhbatlar, sayrlar, kuzatuvlar bolaning anglash izlanish faoliyatini oshiradi. Ba'zi tabiat hodisalari sodir bo'lganda pedagoglar boshchiligidagi kuzatishlar amalga oshirilib, ularning tabiatda paydo bo'lish omillari haqida ma'lumotlar olishlari tasavvurlarini yanada kengaytiradi. Anglash izlanish faoliyatining natijasi o'laroq bolaning mustaqil bilim olish faolligi oshiriladi. Bolalarda jonli va jonsiz tabiatni tashqi belgilari va yashash muhitiga qarab tizimlashtirish va guruhlariga ajratish imkoni mavjud. Obyektlarning o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Amaliyotda ekologik aksiyalarni o'tkazish ta'lim tarbiya jarayonining yana bir qiziqarli yo'nalishi hisoblanadi. Tabiat muhofazasi bo'yicha o'tkaziladigan aksiyalar kompleks tadbir hisoblanib, bolalar bilan birga kattalarni ham tabiatni muhofaza qilish jarayoniga jalb qiladi, jarayon davomida bolalarda tabiatni kelgusi avlodlarga asrashga qaratilgan ekologik anglash va istak paydo bo'ladi. Shuningdek, ekologik aksiyalar mavzusini aniqlash maqsadida ota-onalar bilan hamkorlikda pochta tashkil qilish mumkin. Olingan takliflar natijasida "Qishda qushlarni oziqlantiramiz", "Bizning yashil bog'chamiz", "Mehnat askarlari", "Qushlar uchib keldilar", "Yaxshilik yo'llari", "Ozor berma" kabi bir necha yo'nalishlarda ekologik aksiyalar tashkil etish mumkin. Har qanday pedagogik jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash yuqori samara beradi. MTTda ota-onalar bilan birgalikda ekologik bayramlar, "Ekologik ertaklar", "Go'zal archayoqar barchaga", "Jajji ekologlar", "Hayvonot olami", "Ona sayyora" kabi bolalar va kattalar ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish ham bolalarda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha bilimlarini oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ota-onalar bilan dialog tarzida davra suhbatlari, fakultativ mashg'ulotlar, savol va javoblar kechalari, seminar praktikumlar tashkil etish mumkin.

Ekologik tarbiyani o'zlashtirishni yengillashtirish maqsadida mashg'ulotni rejalashtirishda 4 ta o'zaro bog'liq bo'limlar ishlash mumkin:

- ✓ kognitiv tadbirlar;
- ✓ o'quv ishlari;
- ✓ amaliy tadbirlar;
- ✓ ko'ngilochar tadbirlar.

Kognitiv dunyo o'z ichiga inson va jamiyat kabi mavzularni oladi. Inson-uy, ko'cha, shahar. Inson tabiatga qanday ta'sir ko'rsatadi, tabiatni kelgusi avlodga saqlash uchun nimalar qilishi kerak. Bo'lim shuningdek, o'simliklar va hayvonlar, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq

Mart, 2025-Yil

bilimlar beruvchi tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'quv ishlari – “tabiat va qish guldastasi fantaziyasi”, ekologiya suratlarda, ekologik plakatlar seriyasi va h.k. ko'rgazmalar tashkil etishni o'z ichiga oladi. O'qish, she'rlarni yodlash, hikoyalar aytish, tabiat belgilari haqida topishmoqlar aytish. Bolalarning mustaqil ertaklar, hikoyalar to'qishi.

Amaliy tadbirlar – tabiiy materiallar uchun oziq tayyorlash, qo'l ishlari, ko'rgazmali materiallar tayyorlash, o'simliklar ekish, markazlarda ishlash, rasmlar, plakatlar chizish.

Ko'ngilochar tadbirlar – turli sayrlar, ekskursiyalar, viktorinalar, ertaliklar. Tabiatda harakatlanish qoidalar:

- O'simliklar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, daraxtlarning shoxlarini sindirmaslik, gullayotgan o'simliklarni ildizi bilan sug'urib olmaslik, o'simliklarni gullarini uzmaslik, faqat tushib qolgan barglarni yig'ish;

- Daraxtlarning po'stlog'ini yulish, pichoq bilan tilmaslik, kesmaslik lozim;

- O'rmonda, park va bog'larda axlat qoldirmaslik, axlat natijasida o'simliklar zarar ko'rishi, atrofdagi suv, daraxtlar va muhit zarar ko'radi;

- Dalada gullar, mevalar tergan paytda ularning urug'ini ko'payishi, qushlar va hayvonlarga ozuqa uchun qoldirish kerakligini yoddan chiqarmaslik kerak. Ochilmagan gullarni, yetilmagan mevalarni daraxtlardan uzib olish mumkin emas. Bolalarni yoshligidan ona Vatanga, atrof muhitga muhabbat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'lim pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonini amaliyot bilan bog'lab tashkil etish yuqori samara beradi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda o'zi yashaydigan muhitni ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekish, xonaki o'simliklar parvarishlash, uy hayvonlariga ozor bermaslik, ko'cha va xiyobonlarda, bog' va dam olish hududlarida ozodalikka rioya qilish qoidalariga amal qilishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyat, avvalo, oiladan, ta'lim-tarbiya maskanidan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda oila bilan hamkorlik faoliyati pedagoglar kutgan natijani to'laqonli ravishda oqlaydi.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, bolalarda ekologik madaniyatni oshirish orqali biz kelgusi avlodlar uchun ona sayyoramizni asrab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
2. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
3. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
4. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
5. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
6. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
7. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUz*, 1(1.1), 83-86.
8. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.
9. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
10. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Мактабгача таълим ташкилотларида болаларни экологик-гигиеник тарбиялаш имконияtlari. Мактабгача таълим-Мактаб-Олий таълим концепсияси муаммо, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
11. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Мактабгача таълим ташкилотларида болаларни экологик-гигиеник тарбиялаш имконияtlari. Мактабгача таълим-Мактаб-Олий таълим концепсияси муаммо, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.

Mart, 2025-Yil

12. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
13. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
14. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
15. Kamilova, G. A. Go'zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). *MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
16. Kamilova, G. A. (2021). *MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
17. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
18. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). *MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING ANAMIYATI. Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
19. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборова, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.
20. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
21. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.

Mart, 2025-Yil

22. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.
23. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.
24. Kamilova, G. A., & Jo'rayeva, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
25. Rahmidinovna, Z. D. (2024). THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION. *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 50-55.

MODERN SCIENCE
& RESEARCH